
“Besh tashabbus olimpiadasi” 2024 yil mavsumining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi

Bugun Toshkent shahrida joylashgan O‘zbekiston taekvondo assosiatsiyasi universal sport saroyida “Besh tashabbus olimpiadasi” 2024 yil mavsumining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Olimpiadaning ochilish marosimida respublika, 14 ta hudud va 208 ta tuman (shahar)lardan jami 89 ming nafar yoshlar ishtirok etishdi. Olimpiadaning ochilish marosimi avvalida 14 ta hududiy studiyalaridan yoshlarning bu yilgi mavsumga tayyorgarligi bo‘yicha hisobotlar olindi.

O‘tgan yilgi olimpiada loyihalarida Toshloq tumanidan 3 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronza medallari qo‘lga kiritilgan.

Yig‘ilishda tuman hokimi o‘rinbosari E. Madaminov 2024 yil davomida yuqori natijani ikki hissa oshirish kerakligini yoshlarga aytib o‘tdi. Toshloq tumanida ham "Besh tashabbus olimpiadasi" ga start berildi.

2024-03-11 12:40:20